Abstract: There are specific features of using the activities of small businesses to improve the well-being of the population, and their full consideration will ultimately have a significant impact on increasing the level of well-being of the population. It is important to formulate a scientific hypothesis for a methodological approach to assessing the impact of the development of entrepreneurial activity on the well-being of the population at the level of the national economy and region, in which changes in both indicators will be brought to a minimum. holistic scale and are assessed based on a description of their relative value.

Key words: Welfare of the population, entrepreneurship, entrepreneurial activity, standard of living.

Аннотация: Существуют специфические особенности использования деятельности субъектов малого предпринимательства для повышения благосостояния населения, и их полное учет в конечном итоге окажет существенное влияние на повышение уровня благосостояния населения. Важно сформулировать научную гипотезу методического подхода к оценке влияния развития предпринимательской активности на благосостояние населения на уровне национальной экономики и региона, при которой изменение обоих показателей будет доведено до минимума. целостной шкале и оцениваются на основе описания их относительной ценности.

Ключевые слова: Благосостояние населения, предпринимательства, предпринимательская активность, уровень жизни.

## KIRISH

Jahonning rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati markazida aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish masalalari turadi. Bugungi kunga qadar shakllanib kelgan nazariyalar umumiy holda tadbirkorlikning rivojlanishi aholi farovonligi darajasining oshishiga imkon yaratadi, degan gʻoyani ilgari suradi. Shunga koʻra, aksariyat mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, uni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirishga eʼtibor qaratiladi. Biroq ayrim tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining kengayishi va buning natijasida iqtisodiy oʻsishning yuksalishi har doim ham tegishli ravishda aholi turmush farovonligining oshishiga olib kelmaydi. Jumladan, “soʻnggi oʻn yillik davr uchun hisoblangan YaIM va aholining ixtiyoridagi real pul daromadlari dinamikasi oʻrtasidagi korrelyatsiya Gretsiyada 0,90, Islandiyada 0,87, JARda 0,85, Portugaliyada 0,78, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 0,46 ga teng boʻlgan”1. Bu esa, tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining aholi farovonligi darajasining oʻsishi bilan uzviy bogʻliqlikda borishini taʼminlash amaliyotiga zaruratni kuchaytiradi.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va mutaxassislari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining aholi farovonligiga taʼsiri borasida koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatining innovatsion shakllarini rivojlantirish, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasining kuchayishi, ijtimoiy tadbirkorlik kengayishining aholi farovonligiga taʼsiri, aholi farovonligi tushunchasi mazmunidagi oʻzgarishlar, aholi farovonligi darajasini

1 Николаев И. Почему растет ВВП и не растут доходы населения. https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2017/07/06/711128-pochemu-rastet-vvp.

baholashda ko‘p omilli yondashuvlar, iqtisodiyotning drayver soha va tarmoqlarini rivojlantirish orqali farovonlikni oshirish kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, uning ehtiyojlarini yuksak darajada qondirish, imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishi uchun barcha shartsharoitlarni yaratish amalga oshirilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadini tashkil etadi. Shunga ko‘ra, bugungi kunda ijtimoiyiqtisodiy yo‘nalishlarda belgilanayotgan chora-tadbirlar aholi farovonligini yanada oshirishga imkon yaratmoqda. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi[2]. Aholi farovonligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘plab omillar qatorida iqtisodiyot yetakchi tarmoqlarining rivojlantirilishi, ulardagi iqtisodiy salohiyatdan to‘liq va samarali foydalanish muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, aholining turmush farovonligi u tomondan olinayotgan daromadlar darajasi, ular orqali hayotiy ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari, mehnat sharoiti va tavsifi, ish vaqti va bo‘sh vaqt nisbati, turar joy sharoiti va qiymati, turli ko‘rinishdagi maishiy va boshqa xizmatlar bilan ta’minlanganlik orqali ifodalanadi. Shunga ko‘ra, aholi farovonligi darajasi, uning manbalari va tarkibiy tuzilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosini tashkil etishi, uni takomillashtirib borishga doimiy zarurat mavjudligi kabi holatlar ushbu jarayonning nazariy jihatlarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqot ishlari muntazam tarzda olib borilishini va uning rivojini ta’minlovchi ilmiy asoslangan yangi yo‘nalishlarni yaratilishini taqozo etib, mazkur tadqiqot ishining mavzusi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning 30-yillariga kelib “davlat farovonligi” konsepsiyasi shakllana boshladi. P.Titmus, E.Xansen, G.Myurdalь, P.Samuelson, S.Leyden, D.Neyl, J.Gelbreyt va boshqalarning ishlarida ijtimoiy tartibda taqdim etiluvchi va moliyalashtiriluvchi xizmatlar ularni xususiy bozor taqdim eta olmagan holdagina ijtimoiy farovonlik tarkibiga kiritiladi.

Davlat farovonligi modeli to‘la bandlik, daromadlarning yuqori darajasi va barqaror narxlar, shuningdek, aholining imtiyozga ega bo‘lmagan qatlamiga ijtimoiy yordam dasturlarini ta’minlash uchun ijtimoiy va iqtisodiy hayotga aralashuvni amalga oshirishga jalb etilgan institutlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Umumiy ma’noda davlat farovonligi – bu fuqarolarning farovonligi uchun davlatning mas’ulligi jamiyatning mas’ulligiga qadar kengaytiriluvchi siyosat tizimi bo‘lib, uning maqsadi – jamiyatning barcha a’zolariga daromadlarni adolatli taqsimlash yo‘li orqali huquqiy, siyosiy, ijtimoiy huquqlarning berilishi hisoblanadi.

“Keyingi o‘n yillikda xorijiy nazariyalarda farovonlik muammosi ikkita asosiy jihatdan qaraladi. Birinchi jihat – bu “yakka farovonlik” tushunchasini turli mamlakatlarda 5 tadan 35 tagacha yetadigan “turmush sifati” mezonlari (iste’mol, bo‘sh vaqt, atrofmuhitning o‘zgarishi, sog‘liqni saqlash va ta’lim omillari, hayot xavfsizligi, boshqaruvda qatnashish, maqsad hissi, daromadlar darajasi va h.k.) nuqtayi nazaridan to‘ldirish hisoblanadi.

Ikkinchi jihat – bu farovonlikni amalga oshirish mexanizmlarining shunday tadqiqiki, u “raqobatli bozori” abstrakt tushunchasini bartaraf etib, ijtimoiyiqtisodiy munosabatlarning real tarkibiy tuzilmasini hisobga olishga harakat qiladi”[3].

Nobel mukofoti laureati J.Byukenen individlar o‘zlarining manfaatlarini tashkillashgan guruhlar orqali, mazkur guruhlar esa bu manfaatlarni davlat apparati vositasida jamiyatning qolgan a’zolari orqali ro‘yobga chiqarishga urinishlaridan kelib chiqish lozim deb hisoblaydi.

Farovonlikning mavjud nazariyalari ijtimoiy farovonlikning erishilgan darajasini izohlovchi sabablar sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: qulay geografik joylashuv, qulay iqlimiy sharoit, tabiiy resurslarning mavjudligi, aholi soni, inson kapitali, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ishtirok va h.k. Farovonlik nazariyasining har biri o‘ziga xos qiziqarli bo‘lsada, o‘zining mukammalligini aniq namoyon eta olmadi[4].

Haqiqatan ham, aholi farovonligi turlicha tabiatga, ta’sir ko‘rsatish tavsifi va darajasiga ega bo‘lgan ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu omillar hayotiy zarur ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilishga ta’sir ko‘rsatadi, insonning ehtiyojlarini qondirishni ta’minlovchi tabiiy va ijtimoiy muhitning holatini belgilaydi.

V.Zombartning ta’kidlashicha: “Tadbirkorsiz hech narsa ro‘y bermaydi.... Ishlab chiqarishning barcha boshqa omillari – mehnat va kapital – tadbirkorga bog‘liq va uning ijodiy faoliyati evaziga hayot uchun intilish paydo bo‘ladi”. Tadbirkorlik faoliyatisiz bozor iqtisodiyoti amal ham qila olmaydi, rivojlana ham olmaydi.

---

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son. – www.lex.uz.

3 Эволюция личного потребления и его форм в трансформируемой экономике. – http://vip-students.com.

4 Федорчук Н.Г. Диссертация... кандидата экономических наук: 08.00.05, 08.00.01. – Тамбов, 2013. – http://dlib.rsl.ru.

Boshqa biri teskari tomonga harakatlanib, milliy boylik va inson taraqqiyoti darajasining jamiyatdagi tadbirkorlik faolligiga ta'siri va uning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashini ifodalaydi. Har bir holatda mustahkam aloqalar mavjud, Biroq ularning hech birida bu aloqalar o'ta mukammal yoki juda samarali hisoblanmaydi. Milliy farovonlik va tadbirkorlik o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham bevosita va bir xil darajada mustahkam bo'lmasa-da, ular ahamiyatli darajada o'zaro bog'liq kategoriyalarni namoyon etadi5.

## NATIJALAR VA TAHLILLAR

Mamlakatimizda aholi farovonligi darajasidagi o'zgarishlarni namoyon etuvchi ko'rsatkichlar dinamikasi (1-jadval)ning hududlar kesimidagi qiymatlarida keltirilgan.

Navbatdagi bosqichda hududlar kesimida aholi jon boshiga hisoblangan farovonlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarning oldingi yilga nisbatan o'sish sur'atlari aniqlanadi. Mazkur o'sish sur'atlari tahlil davrida (2016–2023-yillar) keskin tebranishlarga duch kelgani hamda ushbu jarayon haqida yaxlit xulosa chiqarish imkoniyati cheklangani sababli, ularning tahlil davri yillari bo'yicha o'rtacha qiymatini hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Quyidagi jadvalda yuqorida tanlab olingan 11 ta ko'rsatkich bo'yicha 2016–2023-yillardagi oldingi yilga nisbatan o'sish sur'atlarining o'rtacha qiymatini ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval: Aholi farovonligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'yicha oldingi yilga nisbatan o'sish sur'atlarining o'rtacha qiymati (2016–2023-yy.), foiz [6]

| Hudud | CHTA | UM | KM | SQT | GT | AX | UJF | UJ | YaTU | K | UJO' |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 120,7 | 116,2 | 94,4 | 116,2 | 88,7 | 114,4 | 101,0 | 100,3 | 101,5 | 99,5 | 99,2 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 121,7 | 138,8 | 117,7 | 133,1 | 219,3 | 104,6 | 100,5 | 103,6 | 105,4 | 107,2 | 99,1 |
| Andijon | 119,5 | 120,8 | 93,4 | 142,0 | 80,8 | 105,9 | 100,3 | 111,0 | 109,6 | 108,6 | 98,4 |
| Buxoro | 120,3 | 102,5 | 112,5 | 365,6 | 136,4 | 108,6 | 103,7 | 110,7 | 115,9 | 104,4 | 102,2 |
| Jizzax | 123,2 | 144,1 | 85,4 | 108,6 | 109,6 | 106,3 | 100,5 | 98,7 | 97,3 | 103,8 | 98,6 |
| Qashqadaryo | 119,5 | 112,4 | 117,0 | 462,0 | 24,3 | 107,1 | 102,5 | 98,2 | 102,4 | 100,2 | 100,5 |
| Navoiy | 119,3 | 122,7 | 141,4 | 132,1 | 1,0 | 107,7 | 102,4 | 101,3 | 106,8 | 99,5 | 100,6 |
| Namangan | 124,5 | 151,8 | 114,3 | 122,3 | 103,7 | 108,5 | 103,0 | 105,5 | 106,2 | 99,2 | 101,0 |
| Samarqand | 120,2 | 97,2 | 129,8 | 105,9 | 102,1 | 108,8 | 101,1 | 88,9 | 91,3 | 98,2 | 99,2 |
| Surxondaryo | 118,9 | 168,6 | 79,4 | 183,6 | 20,0 | 103,9 | 99,7 | 99,0 | 101,2 | 94,1 | 97,6 |
| Sirdaryo | 121,6 | 163,2 | 141,9 | 152,0 | 21,2 | 103,7 | 99,8 | 117,8 | 103,5 | 124,0 | 99,5 |
| Toshkent | 120,7 | 117,3 | 142,7 | 144,2 | 2268,4 | 119,0 | 101,1 | 106,0 | 107,1 | 97,8 | 99,9 |
| Farg'ona | 119,7 | 109,8 | 126,1 | 98,6 | 109,5 | 108,7 | 99,6 | 99,3 | 102,2 | 103,5 | 98,0 |
| Xorazm | 123,9 | 150,0 | 110,4 | 181,2 | 58,8 | 112,6 | 101,0 | 93,6 | 96,3 | 94,2 | 99,3 |
| Toshkent sh. | 121,4 | 187,6 | 209,9 | 237,2 | 55,3 | 124,0 | 101,5 | 105,0 | 92,8 | 112,9 | 99,5 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, faqat 2 ta ko'rsatkich, ya'ni chakana tovar aylanmasi umumiy hajmi (ChTA) va aholiga aloqa xizmati ko'rsatishdan tushgan tushum (AX) bo'yicha hududlarning oldingi yilga nisbatan o'sish sur'atlarining o'rtacha qiymati 100 foizlik darajadan yuqori bo'lgan. Qolgan ko'rsatkichlar bo'yicha davriy pasayishlar tufayli ushbu qiymatlarda tebranishlar kuzatilgan.

Shuningdek, ayrim holatlarda mazkur ko'rsatkich qiymatlarida me'yordan chetlanish kuzatiladi. Masalan,

5 Федорчук Н.Г. Диссертация... кандидата экономических наук: 08.00.05, 08.00.01. – Тамбов, 2013. – http://dlib.rsl.ru
6 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yangi qurilish va rekonstruktsiya hisobidan ishga tushirilgan gaz tarmoqlari (GT) koʻrsatkichi boʻyicha Navoiy viloyatida ayrim yillardagi qiymat 0 ga teng boʻlgani hamda, baholash uslubiga asosan oʻrtacha geometrik qiymatni aniqlashda koʻpaytmaning 0 ga teng boʻlib ketishini oldini olish maqsadida 1 koeffitsienti qoʻllanilgan. Toshkent viloyatida esa, aksincha, oldingi yillarda koʻrsatkichning oʻta past qiymatga ega boʻlib, keyingi yillarda keskin oshib ketishi sababli 2268,4 foizni tashkil etgan. Biroq fikrimizcha, alohida olingan koʻrsatkichlar boʻyicha bunday istisno holatlarning yuzaga kelishi va taʼsiri barcha koʻrsatkichlar boʻyicha oʻrtacha geometrik qiymatni aniqlash orqali minimal darajaga tushiriladi.

Demak, navbatdagi bosqichda aholi farovonligini ifodalovchi koʻrsatkichlar boʻyicha oldingi yilga nisbatan oʻrtacha oʻsish surʼatlari asosida oʻrtacha geometrik qiymatlarini aniqlanadi (2-jadval).

2-jadval: Aholi farovonligini ifodalovchi koʻrsatkichlar boʻyicha oldingi yilga nisbatan oʻrtacha oʻsish surʼatlari asosida aniqlangan oʻrtacha geometrik qiymatlari (2016–2023-yy.), foiz [7]

| Hudud | Oʻrtacha geometrik qiymat |
|---|---|
| **Oʻzbekiston Respublikasi** | **104,3** |
| Qoraqalpogʻiston Respublikasi | 119,5 |
| Andijon | 107,1 |
| Buxoro | 124,0 |
| Jizzax | 106,0 |
| Qashqadaryo | 106,3 |
| Navoiy | 73,3 |
| Namangan | 111,9 |
| Samarqand | 103,3 |
| Surxondaryo | 94,8 |
| Sirdaryo | 103,2 |
| Toshkent | 150,3 |
| Fargʻona | 106,5 |
| Xorazm | 107,0 |
| Toshkent sh. | 121,6 |

Jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, aholi farovonligini ifodalovchi koʻrsatkichlar boʻyicha oldingi yilga nisbatan oʻrtacha oʻsish surʼatlari asosida aniqlangan oʻrtacha geometrik qiymatlari jihatidan Toshkent viloyati (150,3%), Buxoro viloyati (124%), Toshkent shahri (121,6%), Qoraqalpogʻiston Respublikasi (119,5%), Namangan viloyati (111,9%) nisbatan yuqori oʻrinlarni egallagan boʻlsa, Navoiy viloyati (73,3%), Surxondaryo viloyati (94,8%) esa, aksincha past oʻrinlarni namoyon etgan.

Mazkur tadqiqot ishida tavsiya etilgan uslubga asosan, hududlardagi har bir koʻrsatkich boʻyicha shakllantirilgan barcha xususiy reytinglarning oʻrtacha arifmetik qiymatini hisoblash orqali ularning umumiy reytingini aniqlanadi (3-jadval).

7 Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan..

3- jadval: Hududlarning aholi farovonligidagi o‘zgarishlar darajasi bo‘yicha reytingi[8]

| Hudud | 1-reyting | 2- reyting | 3- reyting | 4- reyting | 5- reyting | 6- reyting | 7- reyting | 8- reyting | 9- reyting | 10- reyting | 11- reyting | Umumiy reyting |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **O‘zbekiston Respublikasi** | **4** | **7** | **7** | **9** | **2** | **12** | **9** | **7** | **6** | **4** | **10** | **7,0** |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 11 | 9 | 12 | 8 | 8 | 11 | 11 | 2 | 2 | 3 | 12 | 8,1 |
| Andijon | 8 | 13 | 10 | 2 | 3 | 6 | 1 | 3 | 1 | 5 | 1 | 4,8 |
| Buxoro | 3 | 6 | 13 | 12 | 4 | 10 | 10 | 11 | 11 | 6 | 11 | 8,8 |
| Jizzax | 12 | 11 | 8 | 1 | 11 | 9 | 3 | 12 | 8 | 8 | 4 | 7,9 |
| Qashqadaryo | 13 | 8 | 4 | 10 | 14,0 | 8 | 4 | 8 | 4 | 9 | 3 | 7,7 |
| Navoiy | 1 | 4 | 9 | 11 | 6 | 7 | 2 | 5 | 5 | 10 | 2 | 5,6 |
| Namangan | 9 | 14 | 5 | 13 | 7 | 4 | 6 | 14 | 14 | 11 | 9 | 9,6 |
| Samarqand | 14 | 2 | 14 | 4 | 13,0 | 13 | 13 | 10 | 10 | 14 | 14 | 11,0 |
| Surxondaryo | 5 | 3 | 3 | 6 | 12 | 14 | 12 | 1 | 7 | 1 | 6 | 6,4 |
| Sirdaryo | 7 | 10 | 2 | 7 | 1 | 2 | 7 | 4 | 3 | 12 | 5 | 5,5 |
| Toshkent | 10 | 12 | 6 | 14 | 5 | 5 | 14 | 9 | 9 | 7 | 13 | 9,5 |
| Farg‘ona | 2 | 5 | 11 | 5 | 9 | 3 | 8 | 13 | 12 | 13 | 8 | 8,1 |
| Xorazm | 6 | 1 | 1 | 3 | 10 | 1 | 5 | 6 | 13 | 2 | 7 | 5,0 |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hududlarning jamlanma ko‘rsatkichlar bo‘yicha umumiy o‘rtacha reytingi 4,8 dan 11,0 gacha bo‘lgan oraliqni qamrab olgan. Oldingi o‘rinlardagi singari, ushbu reytingdagi hududlar egallagan o‘rinlarii uchta (yuqori, o‘rta va past) darajaga ajratgan holda guruhlab chiqiladi (4-jadval).

4-jadval: O‘zbekiston hududlarining aholi farovonligidagi o‘zgarishlar darajasi bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlarini guruhlash9

| Daraja guruhlari | Hududning reytingdagi o‘rni |
|---|---|
| Yuqori daraja (1-6) | Buxoro (4,8), Toshkent sh. (5,0), Toshkent v. (5,5), Namangan (5,6) |
| O‘rta daraja (6,1-9,0) | Sirdaryo (6,4), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (7,0), Qashqadaryo (7,9), Navoiy (7,7), Andijon (8,1), Xorazm (8,1), Jizzax (8,8) |
| Past daraja (9,1-11) | Farg‘ona (9,5), Samarqand (9,6), Surxondaryo (11,0) |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hududlarida aholi farovonligidagi o‘zgarishlar darajasi bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlari jihatidan Buxoro viloyati (4,8), Toshkent shahri (5,0), Toshkent (5,5),

Namangan (5,6) viloyatlari yuqori o‘rinni qayd etgan. Sirdaryo viloyati (6,4), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (7,0), Qashqadaryo (7,9), Navoiy (7,7), Andijon (8,1), Xorazm (8,1), Jizzax (8,8) viloyatlari o‘rta darajadagi guruhni namoyon etgan bo‘lsa, Farg‘ona (9,5), Samarqand (9,6), Surxondaryo (11,0) viloyatlari nisbatan past darajani namoyon etgan.

Biroq mazkur yondashuvning asosiy maqsadi aholi farovonligi darajasidagi o‘zgarishlarni aniqlash bilan kifoyalanmaydi. Shunga ko‘ra, navbatdagi bosqichda aholi farovonligi darjasidagi o‘zgarishlar tadbirkorlik faoliyati rivojlanishidagi o‘zgarishlar bilan o‘zaro taqqoslanadi, ya’ni tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi hamda aholi farovonligidagi o‘zgarishlar darajasining o‘zaro muvofiqligi aniqlanadi.

8 Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan..
9 Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan..

## XULOSA

Oʻzbekistonda milliy farovonlikni yuksaltirishda aholi daromadlari va bandlik darajasini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish jarayonlarini quyidagi koʻrsatkichlar orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq: iqtisodiyot boʻyicha oʻrtacha ish haqining oshishi va aholi jon boshiga real daromadlarning oʻsishi; aholi pul daromadlarining oshib borishi; aholi pul daromadlari tabaqalanishi darajasi; aholi oʻrta qatlami ulushining ortib borishi; Oʻzbekiston va ayrim mamlakatlarda aholi daromadlarining tabaqalashuv darajasi (detsilь koeffitsienti) taqqoslama tahlili.

Hozirgi sharoitda milliy farovonlik bilan bogʻliq holda mehnat resurslaridan samarali foydalanish borasida koʻplab mamlakatlar uchun xos boʻlgan quyidagi muammolarni ajratib koʻrsatish mumkin:

1) milliy iqtisodiyotning mehnat resurslariga boʻlgan ehtiyojini toʻla va sifatli darajada qondira olmaslik;

2) mehnat resurslari bilim va malaka darajasining zamonaviy talablarga javob bera olmasligi;

3) ayrim tarmoq va sohalardagi mehnat unumdorligining yuqori emasligi va, tegishli ravishda, daromad darajasining pastligi;

4) mehnat bozoridagi kon’yunkturaviy oʻzgarishlarning mehnat resurslari joriy taklifiga ta’sirini ta’minlaydigan mexanizmlar faoliyatida tezlik va sezgirlikning yetishmasligi.

Oʻzbekistonda aholi iste’moli va jamgʻarmasi oqilona nisbatining milliy farovonlik darajasiga ta’sirini tadqiq etishda quyidagi koʻrsatkichlar tahliliga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi: aholi iste’mol xarajati koʻrsatkichlarining oʻzgarishi; aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan eng muhim oziq-ovqat tovarlari boʻyicha iste’mol hajmining oʻzgarishi; aholining iste’mol tarkibidagi sifat oʻzgarishlari; aholi yalpi xarajatlarining tarkibi; aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining iste’mol qilinishi; aholi jon boshiga asosiy yengil sanoat mahsulotlarining aholi tomonidan iste’mol qilinishi; aholining har 100 xonadonga toʻgʻri keladigan uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar bilan ta’minlanishi; oʻrtacha oylik ish haqining xarid qobiliyati; aholi jamgʻarmalarining oʻsishi va boshqalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Oʻlmasov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik / A.Oʻlmasov, A.V. Vahobov. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006, 432-b.
2. Зомбарт, В. Современный капитализм. Т. 3. – М.: Экономическая библиотека, 1930, с.10.
3. Ионова Н.В. Малое предпринимательство в Сибирском федеральном округе: современное состояние и тенденции развития // Вестник Новосибирского государственного педагогического университета. №5(21). 2014. – С.84-98. – www.vestnik.nspu.ru ISSN 2226-3365 – https://cyberleninka.ru/article/n/maloe-predprinimatelstvo-v-sibirskom-federalnom-okruge-sovremennoe-sostoyanie-i-tendentsii-razvitiya.
4. Кадыров Н.М. Как теория предпринимательства обогащает понимание экономических процессов. – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017-yil. 1-b.
5. Кошелева Т.Н. Анализ развития малого и среднего предпринимательства Ленинградской области. // Экономические проблемы регионов и отраслевых комплексов. – С.247. – https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-razvitiya-malogo-i-srednego-predprinimatelstva-leningradskoy-oblasti.
6. Qorayev S. Oʻzbekiston viloyatlari toponimlari./Mas’ul muharrir A.Muhammadjonov./– T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 37-bet.
7. Лавров И.В. Взаимосвязь национального богатства и благосостояния в российской переходной экономике: подходы и проблематика. http://www.uecs.ru/demografiya/item/1925-2013-01-09-11-24-16.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi ma’lumotlari. – www.stat.uz


TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.